



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O'ZBEKISTON**

**"GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G'OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI"**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G'OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO'PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To‘plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.

g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.

g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a’zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.

g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.

PhD, dotsent Shomurodova Sh.G‘.

PhD, dotsent Prenov Sh.M.

PhD, dotsent Raxmonov D.N.

PhD, dotsent Raxmonov K.R.

PhD, dotsent Umirzoqov G‘.O‘.

Mas’ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

XORAZM VILOYATINING FAUNA VA FLORASI, IQLIM XUSUSIYATLARI BILAN BOG‘LIQ TOPONIMLARI

Mirakmalov Mirali Turanboyevich

g.f.d. (DSc), dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Urazbayev Behzod Baxtiyarovich

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqlimi xususiyatlari, viloyat hududida keng tarqalgan o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda ularning tarqalish areallari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan toponimlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fitonim, zoonim, To‘g‘ay, Yekaliko‘l, Yekato‘rang‘il, Oyoqbog‘, Shog‘olqal‘a, iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlar.

TOPONYMS RELATED TO FAUNA AND FLORA OF KHOREZM REGION, CLIMATIC FEATURES

Mirakmalov Mirali

Urazbaev Behzod

Annotation: This article deals with the climatic features of Khorezm region, the toponyms formed in connection with the widespread flora and fauna of the region and their distribution areas.

Keywords: fitonim, zoonim, Togay, Yekalikol, Yekatorangil, Ayoqbog, Shogolqala, toponyms related to climatic features.

Xorazm viloyati toponimlari tarkibida hudud fauna va florasi, iqlim xususiyatlari tasirida paydo bo‘lgan toponimlar ham mavjud. Viloyat fitonimlari, asosan, kishilar hayoti uchun zarur bo‘lgan, umuman ishlab chiqarish, hayot kechirish jarayoni bilan aloqador daraxt turlari, ekinlar hamda yovvoyi o‘simpliklar nomi bilan bog‘liq nomlardir. Daraxt turlari bilan ataluvchi nomlarga Erikbog‘ (O‘rikbog‘), Yakkatut, Tutbag‘i, Go‘jatal, Qoratal, Beshgujum, Aqterak (Oqterak), Ko‘kterak, Go‘ja, Qiyshiqjiyda, Aqtut (Oqtut), Danatut; ekin turlari bilan bog‘liq fitonimlarga Arpabadiyan, G‘avusher (jo‘xori turi), Yong‘irchqa atiz (beda ekiladigan maydon), Kandirli (kanop), Mashtaxta (Moshtaxta, mosh ekiladigan yer) va hakozalarni aytish mumkin. Yovvoyi o‘simpliklar Amudaryo daryosi va hududda mavjud ko‘llar atrofida o‘sadigan o‘simpliklar bilan bog‘liq holda vujudga kelgan. [2,52-b.]

Amudaryo daryosi viloyatning shimoli va shimoli-sharqiy tomonlardan oqib o‘tadi va bu yerda o‘ziga xos bolgan yabiat kompleksi – to‘qaylarni vujudga keltirgan.

To‘qay, to‘qayzor – daryo bo‘yidagi qalin, changalzor o‘rmon. Suv serob, mikroiqlimi atrofdagi cho‘ldan namroq va yumshoqroq bo‘lganidan o‘simlik hamda hayvonot dunyosi o‘ziga xos bo‘ladi. Tuprog‘i ham allyuvial, gidromorf. To‘qaylarda daraxtlar bilan birga butalar ham qalin o‘sadi. O‘rta Osiyo to‘qaylarida terak, tol, zarang, yulg‘un, jiyda, qamish va b. o‘sadi. Hayvonot dunyosi: to‘ng‘iz, kiyik, chiyabo‘ri, to‘qay mushugi, tustovuq va boshqalar uchraydi. Xorazmda to‘qayni to‘g‘ay deyishadi. Z.Do‘simov fikriga ko‘ra, to‘g‘ay asl turkiycha termin bo‘lib, o‘rmon, o‘tli dala, daryo bo‘yidagi o‘rmon, o‘tloq ma’nolariga ega. Viloyatda ham o‘rmon ma’nosida qo‘llaniladi. Viloyat fitotoponimlari tarkibida turli yovvoyi o‘simliklar, daraxtlar, poliz ekinlari nomlari uchratish mumkin. Ularga Arpabodiyon, Kandirli, Mashtaxta, Yilg‘inli, Qamishliq, kabi nomlar misol bo‘ladi.[3, 211-b.]

Xiva tumanidagi qishloqlardan biri Gandimiyon deb ataladi. Qishloq toponimi etimologiyasi to‘g‘risida bir qancha qarashlar mavjud. Shulardan biri qishloq nomi “Gandum” “kon” qadimiy Xorazmiylar tilida (gandum-bug‘doy) “bug‘doy koni” so‘zi bilan bog‘liq. Haqiqatdan ham xonlik davrida xonlikda yetishtirilgan g‘allaning ko‘pchiligi shu qishloqda olindan. Tarixiy ma’lumotlardan ma’lum bo‘lishicha, 1849–1850-yillarda xon saroyiga Gandimiyon qishlog‘idan 1500 botmon bug‘doy topshirilgan.

Urganch tumanida Oyoqbog‘ degan aholi punkiti mavjud bo‘lib, bu yerda oyoq pastki, pastdagi ma’nosida kelgan. Binobarin, joy nomi etimologiyasi pastda joylashgan bog‘ ma’noni anglatib turibdi.

Bog‘ot Bog‘-bog‘, mevazor, at- arabcha ko‘plik shakli. Ya’ni, bog‘ ko‘p joy degani. Shunga o‘xshah joy nomini Hazorasp tumanidagi Bog‘dor nomida ham uchratish mukin. Bog‘dor – bu bog‘bon, bog‘ egasi degani.

Gurlan tumanidagi aholi punktlardan biri Yakkato‘rang‘il deb nomlangan. Qishloqda yaqin o‘tmishda bitta katta to‘rang‘il daraxti bo‘lgan va uni ilonlar in qilib olishgan, yerlik aholi ilonlardan qutilish uchun daraxtga o‘t qo‘yishgan. Aytishlaricha daraxt bir necha kun yonib turgan. Hozir ham bu joyda to‘rang‘il daraxtlari mavjud.

Qilichniyozboy kanalining boshlanish qismi “To‘rang‘ilsaqa” deb ataladi. Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi Amudaryodan suv oluvchi kanalning boshlang‘ich qismi. “To‘rang‘ilsaqa” – bu o‘simlik turi “to‘rang‘il” – (fitonim) va mahalliy gidronim “saqa” – katta kanalni boshlanish qismi nomlarining qo‘shilishidan kelib chiqqan, darhaqiqat kanalning boshlanish qismida to‘rang‘ildan iborat to‘qayzorlar mavjud.

Hazorasp tumanidagi bir aholi punkti Qovunchi deb nom olgan. Bu nom insonlar kasb hunari bilan bog‘liq toponimlar ro‘yxatiga kirsa-da, asosiy faoliyati polizchilikda yetatkchi tarmoqlardan biri qovunchilik bilan bog‘liq holda vujudga

kelgan. Viloyatda qovunchilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, Amudaryo mansabida, ayniqsa, gurvak yetishtirish aholida ajralib turadi.

Viloyatda mavjud zoonimlar ba’zilari chorvachilik bilan bog‘liq holda vujudga kelgan bo‘lsa – Atbazar (Otbozor), Atchapar (Otchopar), Kurra (xo‘tik), Malbag‘ar (Molboqar), yana boshqalari yovvoyi qush va hayvonlar nomi bilan bog‘liq hisoblanadi. Boriyataq (Bo‘riyotoq), Shag‘alavla (shakal – chiyabo‘ri), Shag‘al, Itolgan, Dahanisher (sher og‘zi), Dong‘izqachqan (To‘ng‘izqochgan), Dong‘izli (To‘ng‘izli), Suylunli (tustovuq), Qashqaldoqko‘l (o‘rdaksimon qush), Birg‘azan (Birqozon), Takaliq, Badanataxta (Bedanataxta), Kokqarg‘a (Ko‘kqarg‘a), Chortanli (cho‘rtanbaliq), Sazanli, Laqaliyap (laqqa balig‘i ko‘p yop), Ilanli (Ilonli), Kamavul (kalamush), Qushloq (qushlar ko‘p joy) va hokazo nomlar shular jumlasidan. Ushbu nomlar shu hududda ko‘p uchraydigan yoki ilgari yashagan hayvonot olami haqida ma’lumot beradi.

Viloyatda ko‘llar ko‘p, shulardan birining nomi Qashqaldoqliko‘ldir. Qashqaldoq – qush (Taqirbosh), ko‘l – ko‘lmak. Shu turdag'i qushlar keng tarqalgan ko‘l.

Shovot tumanida Shag‘alqal‘a degan joy bor. Shoqol qal’asi, shag‘al – chiyyabo‘ri yashaydigan joy.

Bir vaqtlar O‘rta Osiyoda qulon deb ataladigan yovvoyi otlar (xachirlar) uyur-uyur bo‘lib yurishgan. Hozirgi vaqtda qulon Turkmanistondagi Badxiz qo‘riqxonasida qolgan, xolos. Lekin Qulonsoy, Qulonboshi, Qulon Qorabog‘, Qulontepa kabi joy nomlari ushbu hayvonning bir zamonlar ko‘p bo‘lganidan darak beradi. Shunga monand Xonqa tumanida Qulon degan joy nomi mavjud.

Xorazm viloyatida geografik joy nomlari tarkibida joyning iqlimi va ob-havosi bilan bog‘liq nomlar boshqa geografik nomlarga nisbatan kam uchraydi.

Xiva tumandagi Irdimzon aholi punkti mavjud bo‘lib, joyni ma’nosi mezon urdi, mezon keldi degani ma’noni anglatadi (“Quyosh mezon burjidjan aqrab tomon og‘adi. Ya’ni hijriy-shamsiy yil taqvimiga ko‘ra, sakkizinch oy — aqrab boshlandi). Zero, bu oy, odatda, o‘zining sovuq ob-havosi bilan ajralib turadi. Shuning uchun uning issiq kelishidan ko‘p ham umidvor bo‘lmaslik kerak. “Mezon o‘tdi, yomg‘iridan nam qoldi, aqrab kirdi, iliq kunlar kam qoldi”, degan maqolda aynan shunga ishora qilingan”.

Quyosh ko‘p tushadigan, serquyosh yerlarga nisbatan Quyoshli degan joy nomi qo`yiladi. Yangibozar tumanida shunday nom bor.

Xorazm toponimi ham ba’zi manbalarda "Xorazm" nomining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjudligini takidlaydilar. Jumladan Xorazm tarixining bilimdoni S.P. Tolstov "Xorazm" nomi talqinlari orasida "Quyoshli o‘lka", "Quyoshli yer" deb atalishi haqiqatga eng yaqin etnonimdir deb ta’kidlasada, Xorazmni "Xvarri yoki Xarri (Xurriy) xalqi vatani", "quyosh (xalqi) zamini" deb izohlaydi. Lekin

shunday bo`lsada ko`pchilik toponimist olimlar Xorazm toponimi etimologiyasi nomalum emas uni chuqurroq o`rganish talab qilinadigan toponimlar ro`yxatiga kirgizishadi.

Urganch shahri etimoligiysi to`g`risida bir qancha afsona va rivoyatlar bo`lsada ulardan hech biri toponim ma`nosini aniq ochib bera olmaydi. Faqat uning ikkinchi qismi *ganch* shahar, qal'a ma`nosida ekanligi ma'lum. Toponimist A.Nizomovning takidlashicha Ur-shamol, ganch- shahar, ya'ni shamol ko`p esadigan shahar, shamolar shahri talqinda ekanini aytib o`tadi.

Yuqorida keltirib o`tilgan tabiiy xususiyatlar bilan bog`liq geografik joy nomlarini o`rganish, chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, ularni toplash va izohlash uchun maxsus toponimik ekspeditsiyalar uyushtirish hozirgi kunning muhim vazifalaridandir. Umuman olgan geografik obyektlar nomlari beba ho tariximizni o`rganishda nihoyatda muhim manbalardan biri ekanligini yanada bir bor ta`kiblab o`tishni joiz bilib, toponimaka sohasida hali qator qilinishi lozim bo`lgan ishlar mavjudligini his qilamiz. Toponimlarni o`rganish tajribasi shuni ko`rsatadiki, toponimiya tadqiqotlarida tilshunoslik bilan bir qatorda ijtimoiy fanlar xususan tarix va geografiya ma'lumtolari hamda ilmiy xulosalaridan unumli foydalanish g`oyatda muhim nazariy umumlashmalarni yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. O`zbekiston viloyatlari toponimlari.-T.: “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2005.
2. Do`simov Z. Xorazm toponimlari –T.; “Fan” 1985.
3. Ҳакимов Қ. М., Миракмалов М.Т. Топонимика (дарслик) –Т.: 2020.